



# TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA O'QITISH ISTIQBOLLARI

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI  
MATERIALLARI TO'PLAMI

**TERMIZ – 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI  
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA O'QITISH ISTIQBOLLARI”**

mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjuman materiali

2023 yil 22-23 dekabr

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ  
И ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ  
ПРОГРАММ”**

материал Республиканской научно-практической конференции по теме

22-23 Декабрь 2023г.

**“PROSPECTS OF TEACHING FINE ARTS AND ENGINEERING  
GRAPHICS WITH MODERN PROGRAMS ”**

material of the Republican scientific and practical conference on the subject

December 22-23, 2023

**Termiz-2023**

*Mazkur konferensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi 2023 yil 22-23 - dekabr kunlari "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini zamonaviy dasturlar yordamida o'qitish istiqbollari" mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumani o'tkazilishini ma'lum qiladi. Anjuman Vazirlikning 2023 yil 2- maydagi 118- son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazildi.*

### **Mas'ul muharrir:**

**Chori Sadatov**-Termiz davlat pedagogika institutining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri dotsent.

### **Tahrir hay'ati:**

**Samiyev A.** -Pedagogika va san'at fakulteti dekani, PhD dotsent

**Boymetov B.** -Chirchiq davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at kafedrasi professori.

**Kamolov I.**- Qarshi davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori.

**Norbosheva M.**-Psixologiya kafedrasi mudiri psixologiya fanlari nomzodi dotsent.

**Xurramov U.**- Musiqiy ta'lif kafedrasi mudiri katta o'qituvchi.

**Abdurahimov L.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti.

**Mamatqulov I.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.b dotsenti.

**Toshpo'latov F.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.b dotsenti.

**Mo'minov B.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.

**Xaitov Z.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi.

### **Taqrizchilar:**

**Xalimov M.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti.

**Turayev X. A.** - Termiz davlat universiteti milliy libos va san'at fakulteti dekani PhD dotsent

**To'plamdan o'rinn olgan maqolalarining sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.**

**Kirish so‘zi:** A.B.Xasanov - Termiz davlat Pedagogika instituti rektori, falsafa doktori,(PhD) dotsent.

**1-sho‘ba.** Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishga oid nazariy va amaliy tadqiqotlar.

<i>Sadatov. Ch. X</i>	Talabalarga oddiy naqsh lementlarini chizish kompozitsiyasini o’rgatish usullari.	<b>9</b>
<i>Sadatov. Ch. X</i>	Talabalarga naqqoshlik san’atiga xos 10 ta naqsh kompozitsiyasini chizishga o’rgatish metodlari.	<b>14</b>
<i>Sadatov. Ch. X</i>	Talabalarni estetik tarbiyalashda naqqoshlik san'ati muktablarining o'rni.	<b>28</b>
<i>Turayev. H.A</i>	Талабаларнинг лойиҳалаш-конструкторлик компетентлигини ривожлантиришда соялар ясашнинг назарий асосларини ўрни	<b>34</b>
<i>Turayev. H.A</i>	Бўлажак чизмачилик фани ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришда <b>аксонометрия ва соялар ясашнинг</b> амалий аҳамияти	<b>41</b>
<i>Ochilov U. M</i>	Boburning vatanga bo’lgan muhabbati	<b>48</b>
<i>Муҳаммадиева З.Б.</i>	Инсонийлик ва маҳорат бирлиги	<b>54</b>
<i>Arziyev S.S.</i>	<b>Muhandislarning sifatli ta'limi innovatsiyalar davrida raqobatbardosh mutaxassislarining asosi</b>	<b>58</b>
<i>Bozorov A.B.</i>	Chizmatasvirning fan sifatida rivojlanish tarixi va uning ilm-fandagi o'rni.	<b>61</b>
<i>Botirov A.A.</i>	KONUS SIRTINI TO‘G‘RI CHIZIQ BILAN KESISHISHI NUQTALARINI TOPISH.	<b>64</b>
<i>Hayitov J. M.</i> <i>Abdukarimov Sh. A</i> <i>Umarova D. Sh</i>	Oliy ta’limda chizmachilik fanini raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitish.	<b>67</b>
<i>Xaitov Z.A</i>	Ajdodlar siymosini ifodalash vositasida talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash metodikasi	<b>70</b>
<i>Baynazarova N.X.</i> <i>Abdumajitov A.SH.</i> <i>Qudratova N.I.</i>	“Ustoz-shogird” tizimi asosida individual ta’limni tashkil etishga qaratilgan klaster yondashuvi	<b>74</b>
<i>Mo’minov B.K</i>	David haykali ko’z bo’lagining qalamtasvirini bajarish usullari	<b>79</b>
<i>Boboxonov O. R</i>	Ta’limda virtual texnologiyalardan foydalanish	<b>84</b>
<i>Boboxonov O. R</i>	Mantiqiy masalalar yechishni muhandislik	<b>88</b>

<i>Sultonov S.N Xusanov O` S</i>	grafikasi darslarida qo`llashning ahamiyati	
<i>Abdumajitov A. Sh</i>	Tasviriy san`at fanlarini o`qitishda grafik dasturlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	<b>91</b>
<i>Utanova D.A</i>	Toshkentning xx-asr 20-yillaridan 80-yillar toponomiyasi	<b>96</b>
<i>Sultanov X. E G`ulomova D</i>	Milliy qadriyatlarimizni o`rganishda miniatyura san`atining o`rni	<b>101</b>
<i>Baymetov B.B</i>	Bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilarini natyurmort janrida ijod qilishga o`rgatishning nazariy masalalari	<b>104</b>
<i>2-sho`ba. Zamonaviy grafik dasturlaridan foydalanishning muhandislik grafikasi sohalariga tadbiq etishning ustivor yo`nalishlari va dolzARB muammolari.</i>		
<i>Toshpulatov F. U.</i>	Yog`och qurilmalarining chizmalari. yog`och qurilma tugunining aksonometrik proektsiyasini bajarish.	<b>110</b>
<i>Muxtorov Sh.S</i>	Zamonaviy grafik dasturlaridan foydalanish. muhandislik va kompyuter grafikasi fanni darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi	<b>120</b>
<i>Muxtorov Sh.S Axmedov M.M</i>	Kesm va qirqimlar mavzusini o`rgatish metodikasi	<b>123</b>
<i>B.T. Abdurahmonov</i>	Zamonaviy sayyoxlar dam olish maskani (Sanatoriyalar) arxitekturaviy funksional tuzilishi	<b>128</b>
<i>Arziyev S. S</i>	Muhandislik masalalarini yechishda 3 o`lchamda modellashtirish	<b>133</b>
<i>L.X.Abduraximov</i>	O`quvchilar grafik tasvirlarni samarali o`zlashtirishda fanlarning o`zaro bog`liqlik darajasidan foydalanish omillari	<b>137</b>
<i>Sattarov Sh.Y</i>	Bo`lajak chizmachilik fani o`qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishda konstruktorlik qobiliyatining o`rni	<b>143</b>
<i>Xoshimova U. T</i>	Amaliy san`at darslari jarayonida talabalarda tafakkurni rivojlantirishda 3d panoramalardan foydalanish afzalliklari	<b>147</b>
<i>Дилиодбеков Ш.Д</i>	Олий таълим тизимидағи ислоҳотларнинг муҳандислик графикаси соҳасидаги ўрни	<b>153</b>
<i>Mo'minov B. K</i>	Kasb-hunar maktablarida chizmachilik o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari	<b>157</b>
<i>Rustamov U.K</i>	Tasks for teaching engineering computer	<b>161</b>

	graphics.	
<i>Haqberdiyev B. R</i>	Grafik ijodkorligini rivojlantirishda muhandislik kompyuter grafikasini o'rni.	<b>164</b>
<i>Haqberdiyev B.R</i>	Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integrativ o'qitishda pedagogik usullar	<b>168</b>
<i>Malikov K. G</i>	Yaqqol tasvir orqali talabalarni fazoviy tassavurini oshirish va ijodkorligini shakillantirish.	<b>172</b>
<i>Ядгаров Н.Д</i>	Чизмачлик таълим жараёнида smart технология	<b>177</b>
<i>3-sho 'ba. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fani o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik va psixologik muammolari va ularning yechimlari.</i>		
<i>Muhammadiyev E.T</i>	Elektron ta'lim muhitida kasbiy kompetentlilik va uni rivojlantirish zaruriyati	<b>181</b>
<i>Rakhmatova I. I</i>	Art therapy history and stages of formation as a science	<b>185</b>
<i>M.Karimova</i>	Boshlang'ich sinflar uchun art terapiya ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida	<b>189</b>
<i>Abdullayeva D.T</i> <i>Saidaxmetov S. T.</i>	Tasviriy san'at va Muxandislik grafikasi fanini o'qitishda talabalarni konstruktorlik-texnologik komponentensiyalarini namoyon etish.	<b>192</b>
<i>Maxmudov A. A</i>	Chizma geometriya fanini o'rganish jarayonida yo'l qo'yiladigan xato va omillar, uning sabablari	<b>195</b>
<i>Fayziyeva S. G'</i>	Chizmachilik darslarida fazoviy tafakkurning o'rni va ahamiyati	<b>198</b>
<i>Madaminov J. Z</i>	Bo'lajak muhandisning loyihalashtirish va muhandislik salohiyati orqali mutaxassis faoliyati tarkibiy qismlar	<b>201</b>
<i>Mamatqulov I.Ch</i>	Manzara ishlashda rangtasvir jilosi	<b>204</b>
<i>Muhammadiyeva Z. B</i>	Tasviriy san'at fanida o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirishda kompozitsyaning o'rni va ahamiyati	<b>211</b>
<i>Zulfiyev R</i>	Kompozitsyaning asosiy qonuniyatları	<b>217</b>

<i>Baynazarova N.X. Qudratova N.I. Urmanova S.</i>	“Ustoz va shogird” tizimi – talabalar uchun yangi imkoniyat	<b>229</b>
<i>Muhammadiyeva Z.B</i>	Easviriy san’at darslarida o‘quvchilarni ijodiy faollik kanpesentini oshirish umumiy o‘rta talim maktablari misolida	<b>233</b>
<i>Omanov. R. Sh</i>	Kichik mакtab yoshidagi bolalarda ekologik tafakkurni shakllantirish	<b>243</b>
<i>Xojiyev U. A</i>	Oliy ta’lim muassasalarida “muhandislik kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishning nazariy ahamiyati va tarixi	<b>246</b>
<i>Xaitov Z. A Xayitboboyeva R.T</i>	Ajdodlar siymosini ifodalash vositasida talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash dolzarb muammosi pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida.	<b>254</b>

2. A.A.Allanazarov, O.R.Boboxonov, S.S.Sultonov va O.N.Qarshiyev “Muhandislik va kompyuter grafikasi” Uslubiy ko‘rsatma. Termiz-2022.; “IRFON-PRINT” .119-b.

3. P.Ismoilov, S.N.Sultonov, O.R.Boboxonov “Muhandislik va kompyuter grafikasi fanining Chizma geometriya bo`limi uchun mash va masalalarining yechimi bilan berilishi bo`yicha uslubiy qo’llanma” Termiz-2023.; “VNESHIN-VESTROM”. 105-b.

## **TASVIRIY SAN’AT FANLARINI O‘QITISHDA GRAFIK DASTURLAR VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li  
CHDPU “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san’at fanlarini o‘qitishda va uning samaradorligini oshirishda qo’llash mumkin bo’lgan grafik dasturlar haqida, ularni ta’lim jarayoniga tadbiq etishning afzalliklari haqida so‘z borgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о графических программах, которые можно использовать при обучении изобразительному искусству и повышении его эффективности, а также о преимуществах их применения в образовательном процессе.

**Abstract:** This article discusses graphic programs that can be used in the teaching of visual arts and its effectiveness, as well as the advantages of using them in the educational process.

**Kalit so‘zlar:** Grafik dastur, multimedia, kompyuter texnologiyasi, animatsiya, ko‘rgazmalilik., multimediya, grafik dasturlar, texnologiya.

Hozirgi paytda texnika va texnologiyalar kun sayn shiddat bilan yangilanib borayotgan davrda jamiyatni dunyoqarashi va zamonga moslashuvini tubdan o'zgartirishi tabiiy holat bo'lib bormoqda. Bu holatda ta'lim olish holatlarini yangilanishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassalarida masofaviy ta'limlarning yo'lga qo'yilishi bunga bir misol sifatida ko'rishimiz mumkin. Masofaviy ta'lim, tabiatning o'zgarishi (pandemiya davri) va so'ngi texnologiyalarning ta'lim tizimiga samarali tadbipi o'qitishni va o'qishni o'zgartirishga undadi. Bu esa raqamli dunyoda o'qitish va o'rganish borasida ko'plab pedagogik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida O'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish; o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim muktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish; axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarda "Buyumlar interneti", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriylar, shuningdek, xorijiy qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;

raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish; g'oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ'ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o'tkazish; yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan audio va video materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o'qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish[1].

Ta'lim tizimini isloh qilish, uni tubdan samarali bosqichga olib chiqish uchun tinimsiz tarzda zamonaviy texnologiya va innovatsiyalar joriy etilmoqda. Ushbu o'zgarishlar jamiyat va davlatning kelajagi bo'lgan o'quvchilarni yangi dunyoqarash bilan ulg'ayishi uchun xizmat qilishi shubhasiz. Odatda, kompyuter texnologiyalari deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Aslida ham shunday. Nafaqat qayta ishslash balki yangidan yaratish ham mumkin. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika holatlarida ham kompyuter texnologiyalari haqida gapirish o'rinni deb hisoblaymiz. Bugungi kun o'zgarishlarini inobatga olsak tasviriy san'at fanlarida

ham zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Masalan, kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv adabiyotlari va undagi grafik tasvirlar, libos va interyer dizaynlari va boshqa ko'plab misollar keltirish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda tasviriy san'at darslarida multimedya vositalari yordamida o'tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunday kompyuter texnologiyalaridan foydalanib ta'lim berish jarayoni o'quvchilarning bilim olishi va uning samaradorligini sezilarli darajada odimlab bormoqda. Ta'lim jarayoni to'laqonli bo'lishida, faqat o'qituvchi nutqi kamlik qiladi, shunda multimedia vositalari asosida ko'rgazmali qurollardan o'z vaqtida to'g'ri foydalanish ancha qulaylik yaratadi, ya'ni: "Yuz marta eshitgandan bir marata ko'rgan afzal", degan xalq maqoliga amal qilinadi. Tasviriy san'at darslari multimedia vositalari yordamida tashkil etilsa o'quvchilaming bilim saviyalarini oshirish, tasviriy san'atni texnik ta'lim bilan bog'lashga erishgan bo'lamic. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlar va hodisalami sinchiklab o'rganishga yordam beradi. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar grafik dasturlar yordamida qisqa muddat davomida homaki ranglavhalar, eskizlar chizish o'quvchilar faolligini oshirishga imkon beradi. Ayni vaqtida har bir mакtabda tasviriy san'at fani o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'quvchilari va yuqori sinf o'quvchilari uchun alohida topshiriqlar tanlab ularning yoshiga mos keladigan san'at asarlarini kompyuter yordamida o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, rasmni qog'ozga chizish bilan grafik dasturlar orqali O'quvchilar chizish o'rtasida farq mavjud. Qog'ozda ranglar tiniq yorug' va soyalar aniq bilinadi. grafik dasturlar orqali rasm chizish jarayonida qisqa vaqt mobaynida etyud, eskizlar bajaribgina qolmay rangtasvir asarlar ham bajarishlari mumkin. Tasviriy san'at fani o'qituvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan zamonaviy dasturlardan "SKETCHBOOK", "INFINITE PAINTER", "PENUP", "PHOTOSHOP", "PICTSART", kabi maxsus grafik dasturlar mavjud. Bu dasturlar asosida o'quvchilarga rasmning qanday chizilishi nazariy jihatdan ularga yondoshish, o'quv jarayonida turli xil usullardan foydalanishlarini o'zlashtirish

mumkin bo'ladi. Darslarda multimedia vositalari va grafik dasturlardan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, ta'lim jarayonida berilayotgan materialami chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatining mavjudligi, dars jarayonida qisqa vaqt ichida ko'proqma'lumot berishga erishiladi. Umuman olganda, grafik dasturlar va multimedia vositalarining o'quv amaliyotida qo'llanishi har tomonlama samarali natija beradi. Olingan bilim kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi va uni amaliyotda qo'llash mumkin. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at darslarini sifat samaradorligini oshirishda yangicha metod va kompyuter texnologiyalarining o'rni beqiyos. Shunday ekan ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy natijalarga erishishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmoni.
2. Ibragimov, X. X. (2023). From the History of Pedagogical Problems of the Development of the People's Practical Decorative Art. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 300-310.
3. Ibragimov, X. X. (2023). Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tabiat qo 'ynida tashkil etish orqali O'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(20), 688-696.
4. Muratov, X. X., & Yusupova, S. A. (2020). Umumiyl o'rtalim maktablarida dars mashg'ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. *Academic research in educational sciences*, (3), 202-208.
5. Abdumajitov, A. S. (2023). Development of landscape genre in national painting. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 469-476.
6. Shuhratovich, I. U. (2020). Technologies of Working on Graphic Materials in Fine Arts Classes. *Journal of Asian Multicultural Research for Educational Study*, 1(2), 1-4.
7. . Raxmonov I. Valiev A. Valieva B. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning zamонавиyy texnologiyalari. Toshkent 2013 y
8. D.Tojiboyeva, A. Yuldasheva Maxsus fanlами o'qitish meiodikasi. T. "Aloqachi" 2009
9. O'G'Li, A. A. S. (2023). TASVIRIY SAN'AT MASHG 'ULOTLARIDA GRAFIK DASTURLAR VOSITASIDA TASVIR ISHLASHNING

DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 19-23.

10. Sobirov, S. T. (2022). Modern Traditions of Working with Illustrations to Fiction (Based on Educational Cluster). *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(6), 198-202.

11. Маҳмудов, М. Ж. ТАЛАБАЛАРНИНГ МАНЗАРА ИШЛАШ ЖАРАЁНИДАГИ БАЪЗИ МУАММОЛАР.

## **TOSHKENTNING XX-ASR 20-YILLARIDAN 80-YILLAR TOPONOMIYASI**

Alfraganus Universiteti  
Umumkasbiy fanlar kafedrası  
o`qituvchisi Utanova Diyora Abdumanobovna  
[bek\\_diyora@mail.ru](mailto:bek_diyora@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Toshkentning tarixiy davri va bugungi kuni taqqoslanib, shahardagi qayta qurish ishlari natijasida tarixiy muhit yo`qolib borayotgani ko`rsatilgan.

**Аннотация:** В данной статье сравниваются исторический период Ташкента и сегодняшний день, показывается, что историческая среда исчезает в результате реконструкции города.

**Abstract:** This article compares the historical period and present day of Tashkent and shows that the historical environment is disappearing as a result of the reconstruction work in the city.

**Kalit so`zlar:** Toshkent, toponomiya, shahar, dacha, devor, darvoza, mahallalar, mavze, tarihiy shahar, arxitektura.

**Ключевые слова:** Ташкент, топономия, город, даха, стена, ворота, кварталы, район, исторический город, архитектура.

**Keywords:** Tashkent, toponomy, city, dakha, wall, gates, blocks, district, historical city, architecture.

Toshkentning o`tmishi va bugunini bog`lab turgan bir nechta toponomik joylar to`g`risida bir og`iz fikr yuritib o`tamiz.